INSON RUSURSLARIGA KAPITAL KIRITISH

Norqulova D.Z
SamISI PhD, dots. v.b.
Usmonov B.Sh
SamISI IRB-120-guruh talabasi

Anatation:

This article is about the importance of capital investment in human resources, social benefits and the project to be created in this area.

Key words:

Resource, capital, investment, statistics, income, skills, motivation, motivation, psychology, selfishness.

Barcha rivojlangan mamlakatlar o'z aholisining sog'lomlik darajasi, ularning ruhiy ahvoli, bilim ko'nikmalari hamda raqobatbardoshlilik holatini yuqori darajaga olib chiqishga harakat qilishadi. Bunga esa faqat inson kapitaliga investitsiya kiritish bilangina erishish mumkin. Odatda davlatlar iqtisodiy rivojlanish uchun fizik kapitallardan foydalanishadi. Yani, ko'ngilochar inshoatlar, zamonaviy istirohat bog'lari, xalqaro standartlarga mos airaport va shunga o'xshash boshqalar. Bunga asosiy sabab, fizik kapitaldan tezroq foyda olish mumkinligidir. Ammo, inson resurslariga ajratilgan ivestitsiya natijasida, jamiyat uchun kerakli shaxslar rag'batlantiriladi, ularga kerakli moddiy va ma'naviy motivatsiyalar beriladi. Undan tashqari ta'lim muassasalari va xodimlariga ajratilgan kapital, o'quvchilarning salohiyatli, tirishqoq, qattiyatli va Vatanga muhabbat bilan voyaga yetishlariga xizmat qiladi. Ko'pchilik bunday turdagi investitsiyalar foyda keltirmaydi deb o'ylashadi. Ammo, inson rusurslariga etibor berilmagan jamiyatda raqobatbardoshlilik juda ham pasayib ketadi. Aynan shu mavzuda Jahon banki prezidenti Jim Yon Kimning Amerika Qo'shma Shtatlarining "Foreign affairs" jurnal saytida tahliliy maqolasi chop etilgan. Unda ijtimoiy kapitalning ahamiyati, undan kelgan foydalarning statistikasi bilan bir qatorda, mamlakat iqtisodiy rivojlanishi uchun iste'dodli insonlarni tarbiyalash kerak degan g'oyani ilgari surgan. Bu tizimning ahamiyatini tushunish uchun, bugun tug'ulgan boladan, 18 yil o'tib nimalarni kutishimiz mumkin degan savolga javob berishimiz kerak. Ularning aqliy va jismoniy sog'lomligi, erkin fikrlashi va eng muhimi, bugungi kunda tobora xuruj qilayotgan turli xil radikal oqimlarga qo'shilmasligi, tog'ri ta'lim tarbiya olishlari, kelajakda insoniyatga xizmat qiluvchi shaxs bo'lishlari uchun, bugun ularga kerakli kapitalni ajratishimiz kerak. Bundan keladigan foydani odatda iqtisodchi olimlar ta'lim olgan odamning daromadi bilan hisoblashishadi. Tadqiqotlar esa, qo'shimcha tarzda olingan ta'limning har yili, inson daromadini o'n foizga oshirishini ko'rsatmoqda. Ammo, bu yerda ta'lim berish sifati ham muhim ekanligini unutmasligiz kerak. Bu borada Amerika Qo'shma Shtatlarining statistikasiga qaraydigan bo'lsak, AQSHda, boshlang'ich sinfdagi past malakali o'qituvchini, o'rta malakali o'qituvchiga almashtirish, o'quvchilarga umri davomida 250 ming dollargacha qo'shimcha daromad qilish imkonini beradi. Bu faqat boshlang'ich ta'limni malakali o'qituvchi o'rgatishi natijasidagi foyda. Ammo, yetarli bilimdan tashqari, mardlik, o'ziga bo'lgan ishonch, kuchli iroda va jamoada o'zini ko'rsata olish kabi hissiy ko'nikmalar ham iqtisodiy samaradorlik keltiradi. Bolalarga yoshligidanoq, kerakli rag'bat va motivatsiyalar berish, uning sog'lom muhitda o'sishini taminlash, kelajakda ruhan va jismonan sog'lom avlod olishga bo'lgan ishonchni ortiradi. Inson kapitali rivojlanishining ahamiyati shundaki, u insonlar, iqtisodiyot, jamiyat va butun olmada barqarorlikni saqlashda yordam beradi. Bu faqat kelgusi avlodlar uchun juda ham muhim hisoblanadi. Dunyoning

ko'pgina davlatlari inson rusurslariga turli xil ko'rinishda investitsiyalar kiritdi. Masalan, iqtisodchilarning hisob kitobiga ko'ra inson kapitaliga investitsiya kiritgan va kiritmagan davlatlarning aholi jon boshiga tog'ri keladigan daromadlar 10% dan 30% gacha farq qilishi kuzatilgan. Ammo, bu ishni faqat davlat emas, oilada ham amalga oshirish mumkin. Misol uchun, farzandini bog'chada kuchliroq bilim olishini xohlagan ota ona, kelajakda jinoyatchi, narkamanlarning kamayishi va shu bilan mahbuslar soni qisqarishini o'ylab ham ko'rishmaydi[1]. Endi o'z o'zidan savol tug'uladi: ***O'zbekistonda inson resurslarining qaysi qismi investitsiyaga muhtoj***?

Inson resurslariga ajratiladigan eng yaxshi kapital, bu oiladan boshlanadigan tarbiya va muhit hisoblanadi. Agar biz ota onalarga, bolaning imkoniyatlarini qanday rivojlantirish va unga motivatsiya berish yo'llarini, farzandni qaysi yoshda qanday ovqatlantirish xalqaro sog'liqni saqlash normalarga to'g'ri kelishini, bola psixologiyasining ahamiyatini va muqaddas dinimiz hamda o'zimizga xos qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashni o'rgatsak, uzog'i bilan yigirma yil o'tib, biz jamiyatda Farobiy orzu qilgan fozil odamlarni ko'rishimiz mumkin[2]. Buning uchun esa bo'lajak ota-onalarni nikohdan oldin, yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha, qay darajada bilimga ega ekanligini tekshirib ko'ruvchi test tizimini ishlab chiqishimiz kerak. Yani, testlarning asosiy mazmuni nikohning muqaddasligi haqida tushunchalari va bo'lajak farzandni voyaga yetgunga qadar qanday uslubda tarbiyalashiga qaratilgan bo'ladi. Test natijalari olingach, soha exportlari tomonidan o'rganib chiqiladi, hamda, hududiy kelib chiqishiga qarab, natijalari o'xshash bo'lganlar guruhlarga ajratiladi. Ma'lum muddatda guruhlar shakllangach, bo'lajak ota-onalar chaqiriladi va har bir savolga bergan javobi bo'yicha suhbatlar olib boriladi. Masalan, bolangizning har bir yodlagan she'ri uchun, u yaxshi ko'radigan shirinlikni olib bergan bo'larmidingiz degan savolga, "Ha" deb javob berganlarga, psixolog xodimlar tomonidan, bu uslubni meyyorida ushlab turush kerakli, ozroq etiborsizlik, bolaning erkatoy va injiq bo'lib qolishi mumkinligi, "Yo'q" deb javob berganlarga esa, kerakli motivatsiya berilmaganda bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga doir ko'rsatma va ko'nikmalar beriladi. Undan tashqari, dars jarayonlaridagi asosiy vazifalardan biri, tarbiya uslubida imkon qadar, ayol va erkak bir xil yo'nalishni tanlashi kerakli, shuningdek, oiladagi o'zaro kelishmovchiliklar, ota onaning bir biriga bo'lgan qo'pol muomilasi va haqoratlar, endi shakillanayotgan bolaning psixologiyasiga salbiy tasir ko'rsatishi, keyinchalik kutulmagan holatlarda va jamoat oldida o'z fikrini bayon qila olmasligi, asosiy maqsadini o'zgalarga yetqazishda turli muammolarning yuzaga kelishi kabi salbiy oqibatlar haqida o'rgatiladi. Bu yerda ko'zlangan asosiy maqsad, oila qurish yoshiga yetgan, to'lliq shakllanib bo'lgan shaxslarga aql o'rgatish emas, aksincha jamiyatimizda dunyoga kelib, shu muhitda ulg'ayib, ertaga davlatimiz boshqaruvini o'z qo'liga oladigan avlodga bo'lgan etibor hisoblanadi. Buning ahamiyatini tushuntirish uchun oddiy statistikadan foydalanamiz. Davlat statistika qo'mitasining bergan ma'lumotiga ko'ra 2020- yilda 28.2 mingta oilaning ajrim holatlari qayd etilgan[3]. Endi faraz qilaylik, yigirma zakkiz ming ikki yuzta oilaning ellik foizida bittadan farzand bor desak ham, 14.1 mingta bola, yo ona mehriga zor bo'lib o'sadi, yoki ota tarbiyasini olmasdan ulg'ayadi. Bu bolalarning atigi bir foizida agrissivlik va zararli illatlar mavjud bo'lsa, 140 ta jamiyat uchun zararli bo'lgan avlod voyaga yetmoqda. Bular esa, o'z dunyoqarashi va mafkurasini atrofidagilarga singdirishi ham mumkin. Bu birgina ajrim holatidagi sonlar bilan ishlaganda chiqadigan ko'rsatqich edi. Ammo, qanchadan qancha oilalar, birga yashab turib, bolaga tarbiya berish ko'nikmasiga ega bo'lmaganliklari evaziga, jamiyatga egoist avlodni yetishtirmoqda.

[1] https://xs.uz/uz/post/inson-kapitalini-rivozhlantirishdagi-uzilishlar Asosiy qismdagi barcha statistikalar ko'rsatilgan manbadan olindi.

[2] https://play.google.com/store/apps/details?id=fozil.odamlar.shahri.fozilodamlarshahri

Bularning barini oldini olish va keskin qisqartirish uchun, biz taklif qilayotgan tizimni Respublika miqyosida ishga tushurish va amaliyotda qo'llash uchun FXDYO organlari va Mahalla va Oilani qo'llab quvvatlash markaziga birikirish, shuningdek ularga murojaat qilgan har bir oila qurish istagida bo'lganlarga, bu xizmat turidan foydalanishini taminlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вечканов Г. С. Экономическая теория: Учебник для вузов. 3-е изд. Стандарт третьего поколе ния. — СПб.: Питер, 2012. — 512 с.: ил. — (Серия «Учебник для вузов»).
2. Т. ЖЎРАЕВ, Д. ТОЖИБОЕВА- ИҚТИСОДИЁТ НАЗАРИЯСИ
3. (2-қисм). Toshkent-2013
4. Под редакцией В. В. Круглова, Е. В. Балахоновой - История ЭКОНОМИЧЕСКОЙ
5. МЫСЛИ. Москва, Санкт-Петербург • Нижний Новгород - Воронеж Ростов-на-Дону. Екатеринбург • Самара - Новосибирск
6. Киев, Харьков • Минск - 2008
7. А.А. ХАСАНОВ, Р.А.ИшМУХАМЕДОВА - ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО
8. ОБЕСПЕЧЕНИЯ - «NOSHIR» Ташкент - 2012
9. Pul oqimining kvadranti - Р.Т. Киосаки, Ш.Л. Лечтер.В -Toshkent 2014